

UO‘K:631.52

## SHIRIN QALAMPIRNING HOSIL ELEMENTLARI ANALIZI

*Xurboeva Xamidaxon Kamoliddin qizi*

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti*

*Xolisbekov Jaloliddin Kamoliddin o‘g‘li*

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

**Annotasiya:** Qishloq xo‘jaligi ekinlarini o‘sishi va rivojlanishi bevosita qo‘llanilayotgan agrotexnologik tadbirlar samaradorligiga bog‘liqdir. Ekinning maqbul o‘sishi va rivojlanishi pirovard natijada hosildorlikni ta‘minlaydigan ko‘rsatkich sifatida e‘tirof etiladi. Yaxshi o‘sgan va baquvvat rivojlangan ekinlarda hosil yaxshi shakllanadi. Shuning uchun biz tajriba davomida ko‘chat qalinligini shirin qalampir hosil elementlarining shakllanishiga ta‘sirini kuzatib bordik.

**Kalit so‘zlar:** Shirin qalampir, Agapovskiy, Medal, Yova navi, ko‘chat qalinligi, ekish sxemasi, intraduksiya.

O‘simlikning maqbul o‘sib-rivojlanishi uchun issiqlik, yorug‘lik, namlik, havo hamda oziq moddalar zarur. Ushbu omillardan samarali foydalanish o‘simlikning o‘sish-rivojlanishini belgilab beradi. Ta‘kidlash joizki, ko‘chat qancha ko‘p bo‘lsa, ekinning oziqlanish maydoni shuncha kamayadi, o‘simliklar bir-biriga halaqit bera boshlaydi, foydali aktiv moddalardan foydalanish samaradorligi pasayadi, ya‘ni bir-biriga soya-salqin tusha boshlaydi. Bunday holni oldini olish maqsadida ekinlarni ekishda ilmiy asoslangan ko‘chat qalinligi tavsiya etiladi. Shuningdek, qishloq xo‘jalik ekinlaridan mo‘l hosil olishni asosiy omillaridan biri – ekin maydonida to‘liq ko‘chat hosil qilinishiga bog‘liqdir. Ko‘chat qilib ekiladigan ekinlarning ko‘chat qalinligi bevosita tuproq-iqlim sharoitiga, ko‘chat materialining sifatiga, yerni tayyorlash tizimiga, tuproqning oziqa bilan ta‘minlanganligiga, sug‘orish tizimiga bog‘liq bo‘ladi. Biz ham tajriba davomida ekin ekish tizimlari asosida yaratilgan ko‘chat qalinligiga mos ravishda shirin qalampirning o‘sish-rivojlanishini kuzatishga harakat qildik.

### Ko‘chat qalinligini shirin qalampirning o‘sish-rivojlanishini ta‘siri

Var	Ko‘chat ekish sxemasi	Navlar	Yo‘qotilgan ko‘chatlar soni, dona	O‘simlik bo‘yi, sm	Hosil shoxlari soni, dona	Gullar soni, dona	Mevalar soni, dona
1	70×20×1	Agapovskiy	94	58,6	5,1	12,6	7,3
2	70×20×1	Medal	96	62,0	6,4	11,1	6,5
3	70×20×1	Yova	97	45,7	5,5	12,2	5,2



1	70×30×1	Agapovskiy	99	59,5	5,8	12,4	7,6
2	70×30×1	Medal	100	62,5	6,7	11,6	7,2
3	70×30×1	Yova	94	50,2	5,9	12,3	5,6
1	70×40×1	Agapovskiy	99	61,8	5,7	12,1	7,8
2	70×40×1	Medal	100	63,7	7,2	11,5	7,4
3	70×40×1	Yova	94	56,3	5,6	11,4	5,3

Yuqoridagi 1-jadvalidan ko‘rinib turibdiki, har bir ekish sxemasi asosida yetishtirilgan shirin qalampirning ko‘chatining mahsuldorlik belgilari, ko‘chatlarining soni hamda bo‘y ko‘rsatkichlari, hosil shoxlarining soni va meva hosil ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Shunga muvofiq, 70x20x1 ekish sxemasi asosida ekilgan shirin qalampir navlarining mevaga kiringunga qadar yo‘qotilgan ko‘chatlari soni aniqlandi. Dastlab shirin qalampir ko‘chatlarini dalaga ekishdagi ko‘chatlari soni bilan mvalagan paytdagi ko‘chatlari soni o‘rtasida farq kuzatildi. O‘rtacha hisoblanganda barcha variantlarda yo‘qotilgan ko‘chatlari soni 1-5 tagacha farq qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu xolatga albatta, ko‘chat qalinligi va ekish sxemasining ta‘siri bo‘lgan deb xulosa qildik.

70x30x1 va 70x40x1 ekish sxemasida ekilgan Yova shirin qalampir navida yo‘qotilgan ko‘chatlari soni boshqa variant navlariga nisbatan ko‘proq bo‘lganligi ma‘lum bo‘ldi. O‘rtadagi farq deyarli 4-5 tani tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Yova shirin qalampir navining muxit sharoitiga moslashuvchanlik xususiyati boshqa navlar Agapovskiy va Medal navlariga nisbatan past ko‘rsatkichli bo‘ldi. 70x20x1 ekish sxemasida ekilgan Medal shirin qalampir navida yo‘qotilgan ko‘chatlari soni aniqlandi. Bu esa o‘rsacha 3-4 donani tashkil qildi.

70x30x1 ekish sxemasi asosida yetishtirilayotgan shirin qalampir navidan Agapovskiy navida o‘rtacha 12,4 dona ochilgan gullarni sanadik. Xuddi shu ko‘rsatkich bo‘yicha Medal navida birozgina past 11,6 ta, Yova navida esa Agapovskiy naviga deyarli yaqin ko‘rsatkich 12,3 donani tashkil qildi. Manashu variantda o‘rganilayotgan shirin qalampir navlarining poyasidagi hosil shoxlarning sonini ham

qiyosiy o‘rganganimizda, eng yuqori natijani 6,7 dona bilan Medal navi namoyon qildi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Agapovskiy navida 5,8 dona, Yova navida esa 5,9 donani tashkil qildi.

O‘simlikning tukkan mevalarining soni bo‘yicha kuzatish ishlarini olib borganimizda 70x20x1 ekish sxemasi asosida ekilgan ko‘chatlarning tukkan mevalari soni bo‘yicha eng yuqori natijani Agapovskiy shirin qalampir navi ko‘rsatib, 7,3 dona, Medal shirin qalampir navida esa 6,5 dona va Yova navida esa 5,2 donani tashkil qildi.



70x30x1 ekish sxemasida yetishtirilgan navlarning bo‘y ko‘rsatkichi bo‘yicha taxlil qilinganda 70x20x1 sxemada ekilgan ko‘chatlarga nisbatan sezilarli darajada bo‘ydor bo‘lganligi ma‘lum bo‘ldi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, ekish sxemasida ko‘chatlarning orasidagi masofa qanchali erkin bo‘lsa o‘simlikning o‘shishi va rivojlanishi uchun yetarlicha sharoit yaratilgan bo‘lar ekan. Bu esa o‘simliklar orasida suv va unda erigan minerallarni o‘zlashtirish uchun o‘rtada raqobatni kamayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Agapovskiy navida 59,5 sm ni, medal navida 62,5 sm ni, Yova navida esa biroz pastro ko‘rsatkich 50,2 sm bilan yuqoridagi ekish sxemasiga nisbatan ustunlik ko‘rsatdi. Ushbu variantning shosil shoxlari bo‘yicha, 1 tup o‘simlikdagi gullar soni va 1 tup o‘simlikdagi mevalar soni bo‘yicha yuqoridagi 70x20x1 ekish sxemasida yetishtirilayotgan shirin qalampir navlari ko‘rsatkichlariga deyarli yaqin bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

70x40x1 ekish sxemasi asosida yetishtirilgan shirin qalampir navlarining bo‘y ko‘rsatkichlari qolgan boshqa ekish sxemasida yetishtirilgan navlarning bo‘y ko‘rsatkichidan sezilarli ustunlik qildi. YA’ni, birinchi variantga nisbatan Agapovskiy navining bo‘yi 3-4 sm ga ustunlik qilgan bo‘lsa, Medal navida 2-3 sm ga ustunlik ko‘rsatdi. Ushbu variantning o‘simlik bo‘yi eng bo‘ydor bo‘lgan variant Medal navida bo‘lib, 63,7 sm uzunlik bilan boshqa variant navlariga nisbatan baland bo‘ldi.

Yetilgan va yetilayotgan mevalar soni bo‘yicha ushbu variant ko‘chatlarining ko‘rsatkichlari boshqa variantlarga nisbatan yuqori bo‘ldi. ya’ni, Agapovskiy navida o‘rtacha 7,8 dona, Medal navida 7,4 dona, Yova navida esa 5,3 donani tashkil qildi.

Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlarni jamlagan xolda shuni xulosa qilish mumkinki, o‘rganilayotgan shirin qalampir navlari ichidan Yovaning belgi xususiyatlarini to‘laqonli rivojlanishi uchun tuproq iqlim sharoitlari, ko‘rsatilgan agrotexnik tadbirlar

va boshqa sabablar natijasida barcha beligilarining rivojlanishi uchun 100% li optimal sharoit yaratilmadi. Ammo kelajakda ushbu navni qayta ekish natijasida to‘laqonli intraduktsiya ishlarini amalga oshirsa bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Azimov B. Ekish sxemalarining shirin qalampir navlari hosildorligiga ta’siri. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali, 2016 yil, 10-son, 29-30 betlar.
2. Iminov I., Abduraxmonov S. Shirin qalampir o‘simligi urug‘ sifati va mahsuldorligiga ko‘chat qalinligining ta’siri. Andijon, 2006.
3. Ostonaqulov T.E., Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.Q. Sabzavotchilik. Qishloq xo‘jalik oliy o‘quv yurtlari talabalar uchun darslik. - T.: 2009,- 460 bet.
4. Abbosov A., Hakimov R. Ertagi sabzavot ekkanda. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali, 2009.
5. Abbosov A., Lyan ye., Pardaev Yo. Zamin saxovati — dasturxon ko‘rki. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali, 2008.
6. Azimov B.J., Bo‘riev X.Ch., Azimov B.B. Sabzavot ekinlarining biologiyasi. T., 2001.